



*Umar G‘OYIMOV,*  
*Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti v.b., PhD*  
*E-mail: umarjon199112@gmail.com.*

*NamDU professori, DSc O.Ismanova taqrizi asosida*

### KELAJAK PEDAGOGLARINI TAYYORLASHDA FUNDIRLASH KONSEPSIYASINING AMALIYOTI

Аннотация

Mazkur maqolada biz kelajak pedagoglarini tayyorlash jarayonida fundirlash konsepsiyasining amaliy ahamiyati tahlil qildik. Fundirlash yondashuvi ta'lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va o'qitish mazmunini tizimli loyihalash hamda innovatsion metodlardan samarali foydalanishni kabilarni nazarda tutadi. Ushbu konsepsiya bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda mustaqil fikrlashini shakllantirish va amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashda asosiy o'rinni egallaydi. Tadqiqotda davomida fundirlashning pedagogik jarayondagi funksiyalari va uning ta'lim sifatini oshirishdagi roli hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan uyg'unligi yoritib berildi. Shuningdek, ushbu konsepsiyani oliy ta'lim muassasalarida qo'llash mexanizmlari hamda uning samaradorligini ta'minlash kabi omillari ko'rib chiqiladi. Qolaversa, fundirlash asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni kelajak pedagoglarining kasbiy tayyorgarligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishi hamda ularning raqobatbardoshligini oshirish masalalari yoritildi.

**Kalit so'zlar:** fundirlash konsepsiyasi, kelajak pedagoglari, kasbiy kompetensiya, mahorat, ta'lim jarayoni, dars, pedagogik texnologiyalar, oliy ta'lim, amaliyot, metodika, ta'lim.

### ПРАКТИКА КОНЦЕПЦИИ ФУНДАМЕНТАЛИЗАЦИИ В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

Аннотация

В данной статье проанализировано практическое значение концепции фундамента в процессе подготовки будущих учителей. Подход, основанный на фундаменте, предполагает организацию образовательного процесса на научной основе и систематическое проектирование содержания обучения, а также эффективное использование инновационных методов. Эта концепция играет ключевую роль в развитии профессиональных компетенций будущих учителей, формировании самостоятельного мышления и укреплении практических навыков. Исследование освещает функции фундамента в педагогическом процессе и его роль в повышении качества образования и его совместимость с современными образовательными технологиями. Также рассматриваются механизмы применения этой концепции в высших учебных заведениях и факторы, обеспечивающие ее эффективность. Кроме того, освещены вопросы о том, как образовательный процесс, организованный на основе фундамента, выводит профессиональную подготовку будущих учителей на качественно новый уровень и повышает их конкурентоспособность.

**Ключевые слова:** концепция фундамента, будущие педагоги, профессиональная компетентность, навыки, образовательный процесс, урок, педагогические технологии, высшее образование, практика, методология, образование.

### THE PRACTICE OF THE FUNDAMENTALIZATION CONCEPT IN TRAINING FUTURE TEACHERS

Annotation

In this article, we analyzed the practical significance of the concept of foundation in the process of training future teachers. The foundation approach involves organizing the educational process on a scientific basis and systematically designing the content of teaching, as well as the effective use of innovative methods. This concept plays a key role in developing professional competencies of future teachers, forming independent thinking and strengthening practical skills. The study sheds light on the functions of foundation in the pedagogical process and its role in improving the quality of education and its compatibility with modern educational technologies. It also considers the mechanisms for applying this concept in higher education institutions and factors such as ensuring its effectiveness. In addition, the issues of how the educational process organized on the basis of foundation brings the professional training of future teachers to a qualitatively new level and increases their competitiveness were highlighted.

**Keywords:** concept of funding, future educators, professional competence, skills, educational process, lesson, pedagogical technologies, higher education, practice, methodology, education.

**Kirish.** Zamonaviy ta'lim tizimining globallashuv, raqamli transformatsiya hamda tezkor ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida yangi talab va vazifalar bilan bugun yuzma-yuz kelmoqda. Bugungi kunda pedagog kadrlarni tayyorlash tizmi jarayoni faqat nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmay, balki ularning kasbiy kompetentligini, kreativ fikrlashini, innovatsion yondashuvini hamda amaliy faoliyatga tayyorgarligini shakllantirishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, ta'lim jarayonini ilmiy asoslar bilan tashkil etish hamda uning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi

konseptual yondashuvlar markaziy ahamiyat kasb etadi. Ana shunday yondashuvlardan biri sifatida fundirlash konsepsiyasi alohida e'tiborga ega hisoblanadi.

Fundirlash konsepsiyasi ta'lim tizimi mazmunini tizimli ravishda loyihalash, o'quv jarayonini aniq maqsadlar asosida rejalashtirish, shuningdek, natijaga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni tashkil etishni jarayonini nazarda tutadi. Ushbu tizimli yondashuv ta'lim jarayonining barcha tarkibiy qismlarini – maqsad, mazmun, metod, vosita hamda natijani o'zaro uzviy bog'liqlikda olib boradi. Muhimi o'quv jarayoni

tasodifiy emas, balki oldindan ishlab chiqilgan ilmiy-pedagogik model asosida amalga oshiriladi. Bu esa bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda sifat hamda samaradorlikni ta'minlashga vosita bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv keng joriy etilgan. Ushbu yondashuv pedagog kadrlardan nafaqat bilim berishni, balki o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishni ham talab qiladi. Shu bois bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida ular zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llay oladigan hamda axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalana oladigan va ta'lim jarayonini innovatsion asosda tashkil eta oladigan mutaxassis sifatida shakllanishi talab etadi. Fundirlash konsepsiyasi aynan shu maqsadga xizmat qiluvchi metodologik vositalardan biri hisoblanadi.[1]

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, ta'lim tizimi sifatini oshirish va raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlash bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim tizimi jarayonini samarali tashkil etish, o'quv dasturlarini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish hamda amaliyotga yo'naltirilgan o'qitish tizimini rivojlantirish zarurati bugungi kunda ortib bormoqda. Fundirlash konsepsiyasi esa ushbu vazifalarni amalga oshirishda muhim nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Qolaversa, fundirlash yondashuvi pedagogik jarayonni rejalashtirish hamda boshqarishning tizimlilik tamoyiliga asoslanadi. Bu tamoyil ta'lim tizimi jarayonining barcha bosqichlarini izchil tashkil etish, kutilayotgan natijalarni oldindan belgilash hamda monitoring va baholash mexanizmlarini joriy etishni ko'zda tutadi. Natijada ta'lim tizimi jarayoni samaradorligi ortadi, shuningdek, pedagogik faoliyat esa aniq mezonlar asosida baholanadi. Bu jarayon kelajak pedagoglarining kasbiy tayyorgarligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Kelajak pedagoglarini tayyorlashda fundirlash konsepsiyasining nazariy asoslarini o'rganishda pedagogika, didaktika va ta'limni loyihalash bo'yicha klassik hamda zamonaviy ilmiy manbalar muhim o'rin egallaydi. Adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, fundirlash g'oyasi ta'lim jarayonini maqsadga yo'naltirilgan, tizimli va natijaviy tashkil etish tamoyillariga asoslangan bo'ladi.

Ta'lim tizimi mazmunini tanlash hamda tashkil etish masalalari Ralph W. Tylerning didaktik modeli asosida tahlil etiladi. Tyler ta'lim tizimi jarayonini to'rt savol asosida loyihalash (maqsad, mazmun, metod va baholash) zarur ekanligini ko'rsatadi. Ushbu model fundirlash konsepsiyasining tizimli yondashuviga metodologik asoslardan biri bo'lib xizmat qiladi.[2]

Shuningdek, bilimlarni bosqichma-bosqich shakllantirish hamda kognitiv rivojlanish jarayonini tushuntirishda Jerome S. Brunerning kashfiyotchilik (discovery learning) nazariyasi ham muhim ahamiyatga egadir. Bruner o'quv jarayonida faol bilish, muammoli vaziyatlar hamda mustaqil izlanishning rolini asoslab bergan hisoblanadi. Bu esa kelajak pedagoglarining amaliy kompetensiyasini rivojlantirishda fundirlashning samarador ekanligini ko'rsatadi.

Ta'lim tizimi jarayonida ijtimoiy-madaniy omillarning ahamiyati esa Lev S. Vygotskiyning nazariyasi orqali asoslangan. Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi konsepsiyasi o'qitish jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etish zarurligini aytib o'tgan. Bu yondashuv fundirlashda rejalashtirilgan pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlariga mos ekanligini ko'rsatadi.[3]

Shuningdek, ta'limni tizimli loyihalash hamda pedagogik texnologiyalarni qo'llash masalalari bo'yicha

zamonaviy ilmiy manbalarda o'quv jarayonini algoritmlash, modul asosida tashkil etish va natijalarni baholash mezonlarini ishlab chiqish zarur ekanligi ta'kidlanadi. Ushbu g'oyalar fundirlash konsepsiyasining amaliy mexanizmlarini ilmiy asoslashga asos bo'lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda biz fundirlash konsepsiyasining kelajak pedagoglarini tayyorlashdagi amaliy ahamiyatini aniqlash maqsadida bir qator ilmiy metodlardan foydalandik. Tadqiqotning nazariy asoslarini pedagogik adabiyotlar, ilmiy maqolalar hamda konseptual yondashuvlarni tahlil etishni nazarda tutadi. Ushbu bosqichda kontent-tahlil usuli qo'llanilib, fundirlashga oid asosiy g'oya va tamoyillar tizimlashtirib boriladi.

Qolaversa, qiyosiy tahlil metodi orqali an'anaviy ta'lim yondashuvlari bilan fundirlash konsepsiyasi o'rtasidagi o'xshash hamda farqli jihatlarni o'rganib borildi. Bu usul konsepsiyaning afzalliklarini aniqlash hamda uning innovatsion imkoniyatlarini asoslashga imkon bermoqda. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuvdan foydalanilib, ta'lim jarayonining barcha komponentlari o'zaro bog'liqlikda tahlil etildi.

Empirik ma'lumotlarni to'plash va taqqoslash maqsadida kuzatish va so'rovnomalar metodlari qo'llanilishi nazarda ko'zlangan bo'lib, ular bo'lajak pedagoglarning bilim, ko'nikma va malaka darajalarini aniqlashga imkonini beradi. Olingan natijalar statistik tahlil asosida umumlashtirib boriladi va xulosa chiqarishda asos sifatida foydalaniladi. Tadqiqotning ishonchligi, asosligi va obyektivligini ta'minlash uchun ma'lumotlarni triangulyatsiya qilish usulidan foydalaniladi.

**Tahlil va natijalar.** Kelajak pedagog kadrlarini tayyorlash jarayonida fundirlash konsepsiyasini qo'llash ta'limning samaradorligini oshirishga xizmat etuvchi muhim metodologik yondashuv sifatida namoyon bo'lmoqda. Olib borilgan nazariy va amaliy tahlillardan shuni anglatadiki, mazkur konsepsiya ta'lim tizimi jarayonini tasodifiy emas, balki aniq maqsad, reja hamda natija asosida tashkil etishni talab etadi. Bu esa o'quv faoliyatining tizimlilikini ta'minlaydi hamda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini izchil ravishda rivojlantiradi.

Shuningdek, fundirlash konsepsiyasi asosida tashkil etilgan ta'lim tizimi jarayonlarida talabalarining mustaqil ishlash faoliyati sezilarli darajada tezlashadi. Muammoli vaziyatlarni yaratish, loyihaviy topshiriqlarni berish hamda interfaol metodlardan foydalanishni bo'lajak o'qituvchilarda tahliliy fikrlash, qaror qabul qilish va mas'uliyat hissini oshiradi. Bu esa ularning kelgusidagi pedagogik faoliyatida samarali ishlashigazamin bo'lib xizmat qiladi.[4]

Fundirlash yondashuvi ta'lim tizimi jarayonida monitoring va baholash tizimini takomillashtirishga imkonini yaratadi. An'anaviy baholashdan farqli ravishda bu jarayon, bunda natijaga yo'naltirilgan aniq mezonlar ishlab chiqarilishi kuzatiladi. Talabani o'zlashtirish darajasi faqat yakuniy imtihonlar orqali emas, balki jarayon davomida shakllantiruvchi baholash asosida ham aniqlansa bo'ladi. Bu orqali esa o'quvchilarning o'z ustida ishlash motivatsiyasini oshiradi hamda doimiy rivojlanishga chorlaydi.

Fundirlash konsepsiyasi pedagogik jarayonda integrativ yondashuvni shakllantiradi. Turli fanlar o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlash orqali talabalarda yaxlit kasbiy dunyoqarash rivojlanib boradi. Bu ayniqsa kelajak pedagog kadrlari uchun muhim vazifa bo'lib, ular o'z navbatida o'quvchilarga ham integratsiyalashgan bilim berish ko'nikmasiga ega bo'lib boradilar.

Fundirlash konsepsiyasi qo'llanilgan ta'lim tizimi muhitida talabalar faolligi ortadi, dars jarayonlarida ham ishtirok darajasi yuqori bo'ladi hamda ijodiy yondashuv ortadi. Bu holat ularning pedagogik kompetensiyalarini

shakllantirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bugungi kunda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish jarayonida fundirlash prinsiplari o‘quv faoliyatini tizimli tashkil etishga kata imkon beradi.

**Xulosa.** Kelajak pedagog kadrlarini tayyorlash jarayonida fundirlash konsepsiyasini joriy etish ta‘lim tizimi sifatini oshirish va kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishda muhim metodologik ahamiyatga ega sanaladi. Olib borilgan tahlillardan shuni ko‘rish mumkinki, mazkur yondashuv ta‘lim tizimi jarayonini aniq maqsad asosida rejalashtirish, mazmunni tizimli tanlash hamda natijaviylikka yo‘naltirish imkonini bermoqda. Bu orqali esa o‘quv jarayoni izchil, bosqichma-bosqich va samarali tashkil etilmoqda.

Fundirlash konsepsiyasining eng muhim jihatlaridan biri bu — nazariya va amaliyot integratsiyalashishini ta‘minlash hisoblanadi. Bo‘lajak pedagog kadrlar nafaqat

nazariy bilimlarni egallaydi, balki ularni real pedagogik vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmasini ham shakllanadi. Bu orqali esa ularning kasbiy kompetentligini mustahkamlab, mustaqil qaror qabul qilish hamda muammoli vaziyatlarni tahlil etish va innovatsion yondashuvlarni qo‘llash qobiliyatini rivojlantiradi. Natijada, ta‘lim jarayoni shunchaki bilim berishdan iborat bo‘lib qolmay, balki shaxsiy va kasbiy rivojlanish jarayoniga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, fundirlash konsepsiyasi ta‘lim tizimini loyihalash jarayonida tizimlilik va uzviylikni ta‘minlab beradi. O‘quv maqsadlari, mazmun, metod va natija o‘rtasidagi bog‘liqlik uyg‘unlashtiradi. Bu esa pedagogik jarayonning samaradorligini oshiradi hamda kutilgan natijalarga erishishni tezlashtiradi va osonlashtiradi. Ayniqsa, kompetensiyaviy yondashuv sharoitida mazkur konsepsiya dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Yo‘ldoshev J.G‘. Ta‘lim nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: O‘qituvchi, 2021. 12–176-betlar.
2. Hasanboyev J., To‘raqulov H., Nishonaliyev U. Pedagogika. Toshkent: Noshir, 2019. 25–214-betlar.
3. Nishonaliyev U.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: Fan, 2023. 33–140-betlar.
4. Mavlonova R.A., To‘raeva O. T., Xoliqberdiyev K. Pedagogika. Toshkent: O‘qituvchi, 2015. 18–302-betlar.
5. Muslimov N.A. Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy-metodik asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya, 2024. 41–189-betlar.
6. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: TDPU, 2024. 22–158-betlar.
7. Ziyomuhammedov B. Pedagogik mahorat asoslari. Toshkent: Turon-Iqbol, 2018. 14–167-betlar.